



O‘ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI BILAN IQTISODIY HAMKORLIGI

Muxamedjanov Bexzod Baxodirovich

Osiyo xalqaro universiteti, magistr

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvini kengaytirish iqtisodiyotda davom etayotgan tarkibiy o‘zgarishlarning muhim elementi bo‘lib barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun muhim zamin bo‘lib xizmat qilishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Investitsiya, eksport-import, logistika, kooperatsiya, integratsiyalashuv.

Prezidentimizning Oliy Majlisga so‘nggimurojaatnomasining tashqi siyosat bo‘limida Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. Davlat yetakchisi tashqisiyosatimizning ustuvor yo‘nalishi bo‘lgan Markaziy Osiyo davlatlari bilan ko‘p asrlik do‘stlik vayaxshi qo‘shnichilik, strategik sheriklik va o‘zaro ishonch ruhida aloqalarimizni yanada mustahkamlash alohida e‘tiborda bo‘lishini ta’kidladi. Shuni ahamiyatliki, davlatimiz rahbari ilk xorijiy tashriflarini 2017 yilning mart oyida Markaziy Osiyo davlatlaridan boshladi: avval Turkmaniston va Qozog‘iston, so‘ng Qirg‘iziston va Tojikiston tashriflar amalga oshirildi. Ushbu tashriflar chog‘ida biznes forumlar o‘tkazilib, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo bitimlarning salmoqli paketlari imzolandi. Buesa O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro savdo-sotiq, kooperatsion aloqalarni rivojlantirishga xizmat qildi. Bundan tashqari, qo‘shni davlatlarning O‘zbekiston bilan chegaradosh hududlari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalar o‘rnatish va mintaqaviy iqtisodiy forumlar o‘tkazish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining O‘zbekistonga javob tashriflari esa ko‘p tomonlama hamkorlik poydevorini yanada mustahkamladi hamda iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik yo‘nalishlarini kengaytirdi. Ushbu tashriflar chog‘ida sanoat kooperatsiyasi yo‘li bilan hamkorlikni yanada chuqurlashtirish, yirik investitsiya loyihalarini birgalikda amalga oshirish va qo‘shma ishlab chiqarish obyektlarini yaratish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi. Ta’kidlash joizki,

O‘zbekiston uchun ishonchli va xavfsiz transport yo‘nalishlarini yo‘lga qo‘yish o‘ta muhim masala. Chunki mahsulotlarni ochiq dengiz portlariga yetkazib berish uchun yuktashuvchilarimiz istalgan yo‘nalishda kamida ikkita mamlakat hududini kesib o‘tishi kerak bo‘ladi. O‘zbekistonning geografik jihatdan Markaziy Osiyo markazida joylashuvi mintaqadagi savdo-sotiq doirasida tovarlarni qo‘shni mamlakatlar bozorlariga qisqa yo‘nalishlar bilan yetkazib berish va transport xarajatlarini minimallashtirishga yo‘l ochadi. Buesa mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshiradi va eksport hajmini ko‘paytirish uchun qulay imkoniyatlarni taqdim etadi.

O‘zbekiston va markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida mintaqalararo hamkorlikni amalga oshirishning ijobiy jihatlari quyidagilardan iborat: - yirik investitsiya loyihalarini



amalga oshirish, hududiy klaster, savdo zonalarini tashkil etish;-yuqori texnologiyali faoliyat turlarini (mashinasozlik, farmasevtika, asbobsozlik, axborotlashtirish va aloqa) rivojlantirish va amalga oshirishda tuman va shaharlarda sanoatni rivojlantirish maqsadida hududlarga investitsiya resurslarini jalb qilish; -mahalliy mahsulotlar, masalan, to'qimachilik mahsulotlar uchun o'z brendini shakllantirish, Markaziy osiyo savdo uylari va markazlarini tashkil etish;

-mahalliy mahsulotlarning tashqi bozorlarga, xususan, Markaziy osiyo mamlakatlariga, erkin savdo zonalarini to'g'risida bitimlarni amalga oshirish doirasida chiqarish;

-ta'lim, sog'liqni saqlash, biznesni rivojlantirish va investitsion jozibadorlikni oshirish sohasida tajriba almashish, ilg'or texnika va texnologiyalar ishlab chiqarishga jalb etish:

O'zbekiston ichki siyosatidagi so'nggi yillardagi o'zgarishlar mintaqaviy hayotga ham ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikdagi ochiqlik, oshkoralik, yangilanish va o'zgarishlar mamlakatlarning tashqi siyosatida ham yaqqol ko'rinib turibdi. Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi qaror topgan, «Yangi O'zbekiston» deb atalayotgan bu davrda mintaqadagi hamkorlik o'zining yangi bosqichlarini zabt etmoqda. Xalqaro ekspertlar ham Mirziyoyev hokimiyatini sifatlashda mintaqaviy tinchlikdagi hissasini alohida ta'kidlashayotgani sir emas.

O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy maqsadlaridan biri – o'z hududi atrofida tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik muhitini yaratish. Bu mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy rivojlanish uchun muhim. Prezident Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo davlatlari bilan do'stlik, yaxshi qo'shnichilik, o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashga tashqi siyosatning asosiy ustuvor yo'nalishi sifatida qarayotgani ham sir emas.

Xususan, O'zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish uchun 2020 yil davomida tashqi siyosat va iqtisodiy faoliyat bo'yicha yuqori darajadagi 35 ta tashrifni amalga oshirilgan. Bundan tashqari, Toshkentda ilm-fan, san'at, madaniyat va din arboblari, ishbilarmonlar, yoshlar, sayyohlik, sport, jamoat birlashmalari hamda nodavlat-notijorat tashkilotlari ishtirokida 90 dan ortiq turli uchrashuvlar, videokonferensiyalar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlar o'tkazish orqali xalq diplomatiyasi samarali amalga oshirildi.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining muntazam maslahat uchrashuvlari tashkil etilganligi ham e'tirofga sazovor holat, aslida. Ularning yakdil qarorlari bilan mintaqadagi xavotirli vaziyat sababli 15-16 iyul kunlari Toshkentda «Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar» mavzusidagi xalqaro konferensiya o'tkazildi. Bunday tadbirlarda O'zbekistonning mintaqa tashabbuskori sifatida qatnashishini ijobiy holat sifatida baholash mumkin.

Jahon hamjamiyatida Markaziy Osiyoning ahamiyati va roli ortib borayotganini mintaq hamda tashqi sub'ektlar o'rtasida ko'p tomonlama hamkorlikning turli formatlarini tashkil qilishda ko'rish mumkin.



Markaziy Osiyo davlatlarining barqarorligi va birdamligi, birinchi navbatda, mintaqa tinchligini ta'minlaydi, sarmoyaviy jozibadorligini oshiradi, xorijiy sheriklar va investorlar bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini yaratadi. Prezident Mirziyoyevning Parlamentga murojaatnomasida Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, 2021 yilgi «Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili» davlat dasturida Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlarni izchil davom ettirish bo'yicha harakatlar rejasi kiritilgan.

Xulosa o'rnida qayd etish mumkinki, O'zbekiston yuritayotgan ochiq va o'zaro manfaatli hamkorlik siyosati Markaziy Osiyo mamlakatlarida qo'llab-quvvatlanmoqda. Qo'shni davlatlar O'zbekistonning ishonch va yaqin qo'shnilik muhitini yaratishga qaratilgan sa'y-harakatlarini yuqori baholamoqda, Markaziy Osiyo davlatlari mintaqani barqaror, xavfsiz, hamkorlikda gullab-yashnagan makonga aylantirishga tayyorliklarini izhor qilmoqda. Buesa mintaqa davlatlari iqtisodiyotlarning tezkor taraqqiyotiga yordam beradi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-son Farmoni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y, 6-son, 70-modda
2. Islombek Ulug'bek o'g'li Botirov O'zbekistonning markaziy osiyo davlatlari bilan savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirish – taraqqiyot omili. Vol. 1 No. 12 (2022): INTERNATIONAL CONFERENCE ON EDUCATIONAL INNOVATIONS AND APPLIED SCIENCES 2022/12
3. Sh.A Rakhmatov, A.B Nizamov Principal components of implementation of "university-3.0" transformation in the development of innovative-entrepreneurial activities of modern higher educational institutions Journal of Physics: Conference Series 1691 (1), 012231
4. Sh.A Rakhmatov The role of national higher education institutions in ensuring economic security. Экономическая безопасность социально-экономических систем.
5. Farmanov, T., Yuldasheva, N., Tursunov, I., Madumarova, Z., & Mirkurbanova, R. (2023). Application of game theory simulation in the management of an agro-industrial enterprise. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 420, p. 08011). EDP Sciences.
6. Durmanov, A., Madumarov, T., Abdulkhayeva, G., Shermukhamedov, A., & Baltashov, S. (2023). Environmental aspects and microclimate in greenhouses in the republic of Uzbekistan. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 389, p. 04002). EDP Sciences.



7. TOLIBJONOVICH, M. T., & OGLI, G. O. R. (2020). Lombard Microcredit Organization Its Concept and Its Importance Today. *JournalNX*, 6(10), 109-111.